Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

SAVOL	O'zbekistonda mehmonxona xo'jaligini tashkil etishda qanday muammolar yuz bermoqda?
F -Fikringizni bayon eting.	
S - Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.	
M -Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.	
U - Fikringizni umumlashtiring.	

Mavzu yuzasidan mustaqil bajarish uchun uyga vazifalar



1. Mehmonxonalarning turizm sohasida tutgan o'mini izohlang.
2. Mehmonxona biznesi rivojlanishining tarixiy bosqichlarini tushuntiring
3. AQSh mehmonxona xizmatlari sohasining rivojlanishini tushuntiring.
4. Yevropada mehmonxona xizmatlari sohasining rivojlanishini tushuntiring
5. «Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish» fani qaysi fanlar bilan bog'liq holda rivojlanadi?

Mavzy bo'yicha tayyorlangan test savollari



1. Ilk tavernalar qayerda paydo bo'lgan?
 - A. Qadimgi Yunonistonda
 - B. Qadimgi Hindistonda
 - C. O'zbekistonda
 - D. Fransiyada
2. XII-XIII asrlarda ilk mehmonxonalarning ajdodi qanday atalgan?
 - A. taverna
 - B. mehmonxona
 - C. koshona
 - D. saroy

3. Yevropada dastlabki qahvaxonalar qachon va qayerda ochigan?

- A. 1675 - yili Fransiyada
- B. 1650 - yili Venada
- C. 1659 - yili Londonda
- D. 1652 - yili Londonda

4. 1898 - yilda Londonda ochilgan «Savoy» mehmonxonasi boshqaruvchisining ism – sharifi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping?

- A. Sezar Ris
- B. Margaret
- C. Marriot
- D. Ibn Batutta

5. Dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan 1700 mehmonxonalarni birlashtirgan «Mehmonxonalar sohiblari xalqaro uyushmasi» qachon tashkil topgan?

- A. 1090 - yilda
- B. 1910 - yilda
- C. 1906 - yilda
- D. 1977 - yilda

6. Butunjahon mehmonxonalar assotsiatsiyasi qachon tuzilgan?

- A. 1946 yil
- B. 1985 yil
- C. 1959 yil
- D. 1970 yil

7. Mehmonxonalarining mehmonni kutib olish va kuzatib qo‘yishga mo‘ljallangan mas’uliyatli qismi nima deb ataladi?

- A. vestibyl
- B. mehmonxona yashash joyi
- C. restoran va bārlari
- D. konferens zal

AMALIY MASHG'ULOTNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI	
2-mavzu	ZAMONAVIY MEHMONXONALARNING TURLARI
1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
<i>Mashg'ulot vaqti- 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 20 –30 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Joylashtirish vositalari va tizimi. 2. Mehmonxonalarni tavsiflovchi belgilar: hududiy joylashuvi, nomer fondining sig'imi, qavatliliği. 3. Lyuks mehmonxonalar. Appartamentlar. Motellar. Kurort mehmonxonalari. Idoraviy mehmonxonalar. Taymsher. Kempinglar. Flaytellar. Rotellar. Botellar. 4. Mehmonxonalarning funksional vazifalari. 5. Dunyoning g'aroyib mehmonxonalari. 6. Dunyoning eng yirik va eng qimmat mehmonxonalari.
<i>Mashg'ulotining maqsadi:</i> mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
• joylashtirish vositalari va tizimi haqida ma'lumot berish. • mehmonxonalarni tavsiflovchi belgilar: hududiy joylashuvi,	• joylashtirish vositalari va tizimi haqida ma'lumot oladilar. • mehmonxonalarni tavsiflovchi

nomer fondining sig'imi, qavatligiga izoh berish. • lyuks mehmonxonalar, appartementlar, motellar, kurort mehmonxonalari, idoraviy mehmonxonalar, taymsher, kempinglar, flaytellar, rotellar, botellarni tavsiflash. • mehmonxonalarning funksional vazifalarini tushuntirish. • dunyoning g'aroyib mehmonxonalari haqida ma'lumot berish. • dunyoning eng yirik va eng qimmat mehmonxonalari haqida ma'lumot berish.	belgilar: hududiy joylashuvi, nomer fondining sig'imi, qavatligiga izoh beradilar. • lyuks mehmonxonalar, appartementlar, motellar, kurort mehmonxonalari, idoraviy mehmonxonalar, taymsher, kempinglar, flaytellar, rotellar, botellarni tavsiflaydilar. • mehmonxonalarning funksional vazifalarini tushuntiradilar. • dunyoning g'aroyib mehmonxonalari haqida ma'lumot oladilar. • dunyoning eng yirik va eng qimmat mehmonxonalari haqida ma'lumot oladilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suhbat, Konvert, Konseptual jadval usullari.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Amaliy mashg'ulotning 1-3 savollarini tahlil qiladi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi (1- ilova).	Tinglaydilar.
	1.2. Ta'lim jarayoni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Tinglaydilar.
	2.1. Talabalarga vazifa qilib berilgan Samarqand shahridagi mehmonxonalardan biri haqida to'plangan ma'lumotlarni so'raydi va baholaydi.	O'z fikrlarini erkin bildiradilar.
	2.2. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlarga bo'ladi.	Talabalar kichik guruhlarga bo'linadilar.
	2.3. «Konvert» usulidan foydalangan holda har bir guruh navbat bilan konvertga solingan savollarni oladi (2- ilova).	
	2.4. Topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish uchun 3 daqiqa, javob berish uchun 7 daqiqa vaqt beriladi.	Reglamentga amal qiladilar.
	2.5. Guruhlarning javoblarini diqqat bilan tinglaydi, zarur holarda asosiy joylarga qo'shimcha ma'lumotlar beradi. Javoblar tinglangandan so'ng to'g'ri javob bergan guruh a'zolarini baholaydi. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan	Diagrammani har bir guruh to'ldiradilar.

II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga qaratadi. 2.6. Har bir guruhga topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishida yordam beradi. Yagona xulosa chiqarishga ko'mak beradi va nihoyasida umumlashtirib baholaydi. 2.7. «Konseptual» jadvalidan foydalangan holda talabalarga savol bilan murojaat qiladi (3-ilova). 2.8. Topshiriqlarga tayyorgarlik ko'rish uchun 3 daqiqa, javob berish uchun 7 daqiqa vaqt beriladi. 2.9. Guruhlarning javoblarini diqqat bilan tinglaydi, zarur holarda asosiy joylarga qo'shimcha ma'lumotlar beradi. Javoblar tinglangandan so'ng to'g'ri javob bergan guruh a'zolarini baholaydi.	Har bir guruh vatman qog'ozlarda vazifani bajaradilar. Topshiriqlarni ko'rib chiqib, savollarga javob beradilar. Taqdimot o'tkazadilar.
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi. 3.2. Talabalarga mustaqil ishlashlari uchun mehmonxonalarni turlarga ajratib, ularning funksional vazifalari bo'yicha ma'lumot to'plashlarini aytadi.	Eshitadi. Aniqlaydi. Vazifani yozib oladilar.

O'quv - vizual materiallar:

1-ilova

Mavzu rejasi:

1. Joylashtirish vositalari va tizimi.
2. Mehmonxonalarni tavsiflovchi belgilar: hududiy joylashuvi, nomer fondining sig'imi, qavatligi.
3. Lyuks mehmonxonalar. Appartamentlar. Motellar. Kurort mehmonxonalari. Idoraviy mehmonxonalar. Taymsheer. Kempinglar. Flaytellar. Rotellar. Botellar.
4. Mehmonxonalarning funksional vazifalari.
5. Dunyoning g'aroyib mehmonxonalari.
6. Dunyoning eng yirik va eng qimmat mehmonxonalari.

**Mavzu bo'yicha pedagogik texnologiyalarga asoslangan
tarqatma materiallar**

2-ilova

«Konvert» usuli asosida tayyorlangan savollar 5 ta guruhlariga bo'lingan holda talabalarga tarqatiladi. Har bir savol konvertlarga alohida solinadi. Har bir guruh a'zolari konvertdagi savolga tayyorgarlik ko'rgan holda javob berishadi.

1 –guruh savoli.

Appartamentlar haqida ma'lumot bering

2 –guruh savoli

Idoraviy mehmonxonalar haqida ma'lumot bering

3 -guruh savoli

Lyuks mehmonxonalar haqida ma'lumot bering

4 –guruh savoli

Dunyoning g'aroyib mehmonxonalari haqida ma'lumot bering

5 -guruh savoli

Dunyoning eng yirik va eng qimmat mehmonxonalari haqida ma'lumot bering

3-ilova

«Konseptual» jadvali

	Tavsiflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar		
Lyuks mehmonxonalar.	Evropa mintaqasi	Osiyo mintaqasi	Yaqin Sharq mintaqasi
Appartamentlar.			
Kurort mehmonxonalari.			
Idoraviy mehmonxonalar.			
Taymsher.			
Motellar.			
Kempinglar.			
Flaytellar.			
Rotellar.			
Botellar.			
Mehmonxonani turlari bo'yicha funksional vazifalarini izohlang			

Mavzu yuzasidan mustaqil bajarish uchun uyga vazifalar



1. Mehmonxonalarning turizm sohasida tutgan o'rnini izohlang.
2. Mehmonxona biznesi rivojlanishining tarixiy bosqichlarini tushuntiring
3. AQSh mehmonxona xizmatlari sohasining rivojlanishini tushuntiring.
4. Yevropada mehmonxona xizmatlari sohasining rivojlanishini tushuntiring
5. Shahar markazida joylashgan mehmonxonalar xususiyatlarini tushuntiring.
6. Qishloq joylarida joylashgan mehmonxonalar xususiyatlarini tushuntiring.
7. Mehmonxonalar qaysi belgilari bo'yicha tavsiflanadi?
8. Mehmonxonalarni nomer fondi sig'imiga qarab guruhlang

Mavzu bo'yicha tayyorlangan test savollari



1. Mehmonxonalarni tavsiflovchi asosiy belgilari nimalardan iborat?

- A. sig'imi, necha qavatdan iboratligi, vazifasi va shinamlik darajasi
- B. joylashgan joyi
- C. mavsumiyligi
- D. narx- navosi

2. Mehmonxonalar sig'imga ko'ra necha turga ajratiladi?
 - A. kichik, o'rta, katta
 - B. kichik, katta
 - C. kichik, o'rta
 - D. kichik, o'rta, katta, mayda
3. Mehmonxonalarning sig'imi bo'yicha tasniflashda kichik mehmonxonalar necha o'rinli bo'ladi?
 - A. 150 o'ringacha (100 tagacha nomer)
 - B. 100 o'ringacha (100 tagacha nomer)
 - C. 200 o'ringacha (100 tagacha nomer)
 - D. 150 o'ringacha (75 tagacha nomer)
4. Mehmonxonalarning sig'imi bo'yicha tasniflashda o'rta mehmonxonalar necha o'rinli bo'ladi?
 - A. 150 - 400 o'rin (300 tagacha nomer)
 - B. 100 - 400 o'rin (300 tagacha nomer)
 - C. 150 - 400 o'rin (200 tagacha nomer)
 - D. 100 - 400 o'rin (200 tagacha nomer)
5. Mehmonxonalarning sig'imi bo'yicha tasniflashda yirik mehmonxonalar necha o'rinli bo'ladi?
 - A. 400 dan ortiq o'rin (300 dan ortiq nomer)
 - B. 400 dan ortiq o'rin (200 dan ortiq nomer)
 - C. 300 dan ortiq o'rin (200 dan ortiq nomer)
 - D. 600 dan ortiq o'rin (300 dan ortiq nomer)
6. Mehmonxonadagi apartament nomerlar soni nomerlar umumiy miqdorining necha foizidan oshmaydi?
 - A. 10% dan
 - B. 50% dan
 - C. 40% dan
 - D. 20% dan
7. Mehmonxona butun maydonining kamida necha foizi nomerlar fondiga to'g'ri kelishi lozim?
 - A. 50%
 - B. 90%
 - C. 20%

D. 10%

8. Xonalarining qaysi miqdori mehmonxonalarda apartament nomerga xos?

A. 3 ta xona

B. 2 ta xona

C. 1 ta xona

D. ta xona

9. Shinamlik darajasi nimalardan tarkib topadi?

A. nomerlar fondining holati: nomerlar maydoni (m^2), bir o'rinli (bir xonali), ko'p xonali nomerlar, apartament nomerlarning ulushi, kommunal qulayliklarning mavjudligi va h.k.

B. mebel, inventar, sanitariya-gigiyena ashyolari va sh.k.ning holati; ovqatlanish korxonalari: restoranlar, qahvaxonalar, barlar va h.k.ning mavjudligi va holati

C. binoning, unga keladigan yo'llarning holati, mehmonxonaga yondosh hududning obodonlashtirilganligi; axborot bilan taminlash va texnik jihozlash, shu jumladan telefon, yo'ldosh aloqasi, televizorlar, muzlatgichlar, mini-barlar, mini-seyflar va h.k.ning mavjudligi; ayrim qo'shimcha bepul va pullik xizmatlar ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi

D. barcha javoblar to'g'ri

10. Funktsional vazifasiga qarab qanday mehmonxonalar quriladi?

A. ishbilarmonlar uchun - umumiy tipda, idoraviy, yig'ilishlar, kengashlar va h.k. uchun;

B. dam olish uchun mehmonxonalar - turistik, kurort mehmonxonalari, avtoturistlar uchun, motellar, kempinglar;

C. mehmonxonalarning maxsus turlari - tranzit yo'lovchilar uchun, sportchilar uchun va boshqalar uchun;

D. barcha javoblar to'g'ri

11. Amerika mehmonxonalarining rasmiy klassifikatsiyasiga ko'ra o'rta klassdan yuqori, maxsus birinchi klass sifatida qurilgan, ba'zi ustunliklarga ega bo'lgan zamonaviy mehmonxona nima deb ataladi?

A. Superior First Class

- B. First Class
- C. Moderate Deluxe
- D. Deluxe

12. Amerika mehmonxonalarining rasmiy klassifikatsiyasiga ko'ra standart xonalar, ko'ngilochar xizmatlar, jamoat xonalari va bir qancha lyuks xonalarga ega bo'lgan qulay mehmonxonalar nima deb ataladi?

- A. First Class
- B. Deluxe
- C. Superior First Class
- D. Moderate Deluxe

13. Amerika mehmonxonalarining rasmiy klassifikatsiyasiga ko'ra qulaylik va xizmat darajasiga e'tiborsiz mijozlar uchun taklif etiladigan pansion tipidagi mehmonxonalar nima deb ataladi?

- A. Tourist Class
- B. Superior Tourist Class
- C. First Class
- D. Superior First Class

14. Amerika mehmonxonalarining rasmiy klassifikatsiyasiga ko'ra ko'p holatlarda eski va qoniqarsiz darajadagi arzon pansion nima deb ataladi?

- A. Moderate Tourist Class
- B. Tourist Class
- C. Superior Tourist Class
- D. Moderate First Class

15. Idoraviy mehmonxonalar –

- A. avtoturistlar uchun mo'ljallangan mehmonxonalar
- B. bir joyda nisbatan uzoq vaqt davolanish, sog'ligini tiklash uchun kelgan turistlarga mo'ljallangan.
- C. asosan ma'lum idora, muassasa yoki korxonaga ish yuzasidan tashrif buyurgan odamlar yashashi uchun mo'ljallangan.
- D. dam oluvchilar uchun mo'ljallangan turistik muassasalarning an'anaviy turi sifatida, asosan maxsus ishlab chiqilgan va jihozlangan

piyoda, chang'i, suv, tog', ot, chana, velosipedda sayohat qiluvchi turistlarga mo'ljallangan.

16. Turistik mehmonxonalar -

A. asosan ma'lum idora, muassasa yoki korxonaga ish yuzasidan tashrif buyurgan odamlar yashashi uchun mo'ljallangan

B. faol dam olayotgan turistlar uchun mo'ljallangan.

C. dam oluvchilar uchun mo'ljallangan turistik muassasalarning an'anaviy turi sifatida, asosan maxsus ishlab chiqilgan va jihozlangan piyoda, chang'i, suv, tog', ot, chana, velosipedda sayohat qiluvchi turistlarga mo'ljallangan

D. bir joyda nisbatan uzoq vaqt davolanish, sog'ligini tiklash uchun kelgan turistlarga mo'ljallangan

17. Turistik bazalar-

A. dam oluvchilar uchun mo'ljallangan turistik muassasalarning an'anaviy turi sifatida, asosan maxsus ishlab chiqilgan va jihozlangan piyoda, chang'i, suv, tog', ot, chana, velosipedda sayohat qiluvchi turistlarga mo'ljallangan

B. avtoturistlar uchun mo'ljallangan mehmonxonalar

C. treylerli avtomashinalarda sayohat qiluvchilar uchun mo'ljallaangan ko'chma mehmonxona.

D. suv bo'ylab sayohat qiluvchilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan mehmonxonalar

18. Kurort mehmonxonalari-

A. shaxsiy samolyot egalari uchun mo'ljallangan mehmonxonalar.

B. treylerli avtomashinalarda sayohat qiluvchilar uchun mo'ljallaangan ko'chma mehmonxona.

C. suv bo'ylab sayohat qiluvchilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan, mehmonxonalar

D. bir joyda nisbatan uzoq vaqt davolanish, sog'ligini tiklash uchun kelgan turistlarga mo'ljallangan.

19. Apartamentli mehmonxonalarga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang

A. oddiy mehmonxonalarga qaraganda maydonining kattaligi va ularda mijozlar uzoq vaqt yashashi uchun mo'ljallangan mehmonxonalar

B. suv bo'ylab sayohat qiluvchilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan mehmonxonalar

C. shaxsiy samolyot egalari uchun mo'ljallangan mehmonxonalar.

D. treylerli avtomashinalarda sayohat qiluvchilar uchun mo'ljallangan ko'chma mehmonxona.

20. Motellarga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang

A. avtoturistlar uchun mo'ljallangan mehmonxonalar

B. bir joyda nisbatan uzoq vaqt davolanish, sog'ligini tiklash uchun kelgan turistlarga mo'ljallangan.

C. treylerli avtomashinalarda sayohat qiluvchilar uchun mo'ljallangan ko'chma mehmonxona

D. suv bo'ylab sayohat qiluvchilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan mehmonxonalar

21. «Motel» atamasi nechinchi yilda paydo bo'lgan?

A. 1925 - yilda

B. 1926 - yilda

C. 1927 - yilda

D. 1928 - yilda

22. Yuqori qulaylikdagi yo'lovchi tashuvchi kema ko'rinishidagi suzib yuruvchi mehmonxona -

A. Flotel

B. Akvatel

C. Botel

D. Rotel

23. Kempinglarga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang

A. shaxsiy samolyot egalari uchun mo'ljallangan mehmonxonalar

B. asosan ma'lum idora, muassasa yoki korxonaga ish yuzasidan tashrif buyurgan odamlar yashashi uchun mo'ljallangan.

C. bir joyda nisbatan uzoq vaqt davolanish, sog'ligini tiklash uchun kelgan turistlarga mo'ljallangan.

D. mavsumiy foydalanish uchun mo'ljallangan «yengil» tipdagi mehmonxona bo'lib, asosan uxlash joylari yozgi tipdagi, ko'pincha yog'ochdan qurilgan, isitilmaydigan binolarda yoki chodirlarda iborat mehmonxona

24. Rotellarga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang

A. suv bo'ylab sayohat qiluvchilarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan mehmonxonalar

B. shaxsiy samolyot egalari uchun mo'ljallangan mehmonxonalar

C. treylerli avtomashinalarda sayohat qiluvchilar uchun mo'ljallangan ko'chma mehmonxona.

D. dam oluvchilar uchun mo'ljallangan turistik muassasalarning an'anaviy turi sifatida, asosan maxsus ishlab chiqilgan va jihozlangan piyoda, chang'i, suv, tog', ot, chana, velosipedda sayohat qiluvchi turistlarga mo'ljallangan

25. Ingliz tilida «qayiq» va «mehmonxona» so'zlarining qo'shilishi natijasida paydo bo'lgan mehmonxonaning nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Botel

B. Rotel

C. Flotel

D. Otel

26. Flaytellarga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang

A. treylerli avtomashinalarda sayohat qiluvchilar uchun mo'ljallangan ko'chma mehmonxona.

B. shaxsiy samolyot egalari uchun mo'ljallangan mehmonxonalar.

C. dam oluvchilar uchun mo'ljallangan turistik muassasalarning an'anaviy turi sifatida, asosan maxsus ishlab chiqilgan va jihozlangan piyoda, chang'i, suv, tog', ot, chana, velosipedda sayohat qiluvchi turistlarga mo'ljallangan

D. asosan ma'lum idora, muassasa yoki korxonaga ish yuzasidan tashrif buyurgan odamlar yashashi uchun mo'ljallangan

27. Shahar markaziy qismida joylashgan va minimum qulaylikga ega bo'lgan mehmonxonalar qanday mehmonxonalar hisoblanadi?

A. byudjet mehmonxonalari

B. turistik klassdagi mehmonxonalar

C. o'rta klassdagi mehmonxonalar

D. birinchi klass mehmonxonalar

28. Turistlarga qisqa vaqt to'xtab o'tish sharoitida xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan mehmonxonalarga qanday mehmonxonalar hisoblanadi?

- A. tranzit mehmonxonalar
- B. kurort mehmonxonalari
- C. turistik mehmonxonalar
- D. maqsadli mehmonxonalar

29. Chet elda anjumanlar uchun mo'ljallangan maxsus mehmonxonalar nima deb nomlanadi?

- A. «kongress-otel» yoki «konferens-otel»
- B. «biznes-otellar»
- C. «siti-otellar»
- D. «konferens-otel»

30. Chet elda ishbiarmonlar uchun ham maxsus shinamlik darajasi juda yukori mehmonxonalar nima deb nomlanadi?

- A. «biznes-otellar»
- B. «kongress-otel»
- C. «konferens-otel»
- D. «siti-otellar»

31. Keng miqyosda xizmat ko'rsatmaydigan arzon narxli mehmonxona turi bu -

- A. xostel
- B. apart-otel
- C. gostiniy dvor
- D. pansion

32. Xostelning asoschisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Richard Schirrmann
- B. Tomas Kuk
- C. Vashington
- D. Margaritta

33. Birinchi yoshlar xosteli qachon tashkil etilgan?

- A. 1912 - yilda
- B. 1900 - yilda
- C. 1812 - yilda

D. 1982 - yilda

34. Asosan tropik va janubiy mamlakatlarda turistlar joylashtiriladigan hamda ayvoncha bilan jihozlangan yengil inshoot bu -

A. bungalo

B. otel - klub

C. gami -otel

D. o'tov

35. Bungalo joylashtirish vositasiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping

A. bir qavatli bitta oila uchun mo'ljallagan, yoz paytlarida dam olish uchun oddiy qurilish materiallaridan foydalanib qurilgan shiyponchasiga ega shahar chetidagi yashash uyi

B. o'z oilasi bilan vaqtinchalik yoki doimiy yashashlari uchun uncha katta bo'lmagan yer uchatkasi ega shahar yoki qishloq joylardagi yashash uyi

C. milliy stil asosida chet el turistlariga mo'ljallangan joylashtirish vositalaridan biri bo'lib, shaharning diqqatga sazovor joylarga yaqin joyda barcha qo'layliklarga ega yashash uyi

D. suvda yashash uyi sifatida foydalanish uchun loyihalashtirilgan va maxsus talablarga javob beradigan suzuvchi obe'kt hisoblanadi

36. Buffalo mehmonxonasi qachon ochilgan?

A. 1908-yil

B. 1909-yil

C. 1910-yil

D. 1915-yil

37. Buffalo mehmonxonasi qanday qulayliklarga ega edi va qaysi sinfga kirardi?

A. har bir xonada hammom bo'lgan, birinchi o'rta sinf mehmonxona edi.

B. har bir xonada sochiqlar bo'lgan past sinf mehmonxona edi

C. har bir xonada hammom bo'lgan yuqori sinf mehmonxona edi

D. har bir xonada sochiqlar bo'lgan o'rta sinf mehmonxona edi

38. Nomerga joylashish imkoniyati mavjud, ammo restorani yo'q mehmonxonalar bu -

- A. gami-otel
- B. apart-otel
- C. otel-klub
- D. gostiniy dvor

39. 155m pastda sobiq kumush konida joylashgan g'aroyib mehmonxona qaysi davlatda joylashgan?

- A. Markaziy Shvetsiya
- B. Yaponiya
- C. Avstriya
- D. Norvegiya

40. Uning xonalari yuqorisidan toza buloq suvi oqib turgan, «tog'» ichkarisida joylashgan antiqa mehmonxona qaysi davlatda joylashgan?

- A. Chili
- B. Braziliya
- C. Avstraliya
- D. Shveysariya

41. Mercedes, BMW va Wolkswagen kabi mashinalar ko'rinishidagi yotoqxonalardan tashkil topgan antiqa mehmonxona qaysi davlatga tegishli?

- A. Germaniya
- B. Yaponiya
- C. AQSH
- D. Braziliya

AMALIY MASHG'ULOTNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI	
3-mavzu	MEHMONXONALARNI TASNIFLASH TIZIMI
1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
<i>Mashg'ulot vaqti- 2 soat</i>	Talabalar soni: 20 –30 gacha
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Mehmonxonalarni tasniflash tartibi. 2. Tasniflash jarayonidagi asosiy talablar. 3. Yevropa tasniflash tizimlari. 4. Fransiya milliy tasniflash tizimi. 5. Germaniya tasniflash tizimi. 6. O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalarni tasniflash tizimi
<i>Mashg'ulotining maqsadi:</i> mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • mehmonxonalarni tasniflash tartibini tushuntirish. • tasniflash jarayonidagi asosiy talablarni o'rgatish. • Yevropa tasniflash tizimiga izoh berish. • Fransiya milliy tasniflash tizimiga izoh berish. • Germaniya tasniflash tizimiga izoh berish. • O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalarni tasniflash	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • mehmonxonalarni tasniflash tartibini tushuntiradilar. • tasniflash jarayonidagi asosiy talablarni o'rganadilar. • Yevropa tasniflash tizimiga izoh beradilar. • Fransiya milliy tasniflash tizimiga izoh beradilar. • Germaniya tasniflash tizimiga izoh beradilar. • O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalarni tasniflash

tizimga izoh berish	tizimga izoh beradilar
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, suhbat, FSMU va Nilufar guli usullari.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Amaliy mashg'ulotning 1-3 savollarini tahlil qiladi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi (1-ilo va).	Tinglaydilar.
	1.2. Ta'lim jarayoni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Tinglaydilar.
	2.1. Talabalarga vazifa qilib berilgan mehmonxonalarni turlarga ajratib, ularning funksional vazifalari bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni so'raydi va baholaydi.	O'z fikrlarini erkin bildiradilar.
	2.2. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi.	Guruhlariga bo'linadilar.
	2.3. «FSMU» usulidan foydalangan holda «O'zbekistonda joylashtirish vositalarining milliy tasniflash	Savollarga javob beradilar.

II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	tizimini joriy qilish uchun nimalar qilish lozim?» degan savol bilan murojaat qiladi (2-ilova). 2.4. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga qaratadi. 2.5. Har bir guruhga topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishida yordam beradi. Yagona xulosa chiqarishga ko'mak beradi va nihoyasida umumlashtirib baholaydi. 2.6. «Nilufar guli» usulidan foydalangan holda «Mehmonxonalar tasniflash tizimi bo'yicha qanday kamchilik va afzalliklarga ega?» degan savol bilan murojaat qiladi (3-ilova). 2.7. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga qaratadi. 2.8. Guruhlarning javoblarini diqqat bilan tinglaydi, zarur holarda asosiy joylarga qo'shimcha ma'lumotlar beradi. Javoblar tinglangandan so'ng to'g'ri javob bergan guruh a'zolarini baholaydi.	Diagrammani har bir guruh to'ldiradilar.  Faol qatnashadilar Har bir guruh vatman qog'ozlarda vazifani bajaradilar. Topshiriqlarni ko'rib chiqib, savollarga javob beradilar. Taqdimot o'tkazadilar
	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol	Eshitadi.

III. Yakuniy bosqich <i>(10 daqiqa)</i>	talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi. 3.2. Talabalarga mustaqil ishlashlari « Mehmonxonalarni tasniflash jarayonida asosiy talablar qo'yiladi?» degan savolga ma'lumotlar to'plashlarini aytadi.	Aniqlaydi. Vazifani yozib oladilar.
---	--	--

O'quv - vizual materiallar:

1-ilova

Mavzu rejasi:

1. Mehmonxonalarni tasniflash tartibi.
2. Tasniflash jarayonidagi asosiy talablar.
3. Yevropa tasniflash tizimlari.
4. Fransiya milliy tasniflash tizimi.
5. Germaniya tasniflash tizimi.
6. O'zbekiston Respublikasida mehmonxonalarni tasniflash tizimi

Mavzu bo'yicha pedagogik texnologiyalarga asoslangan tarqatma materiallar

2-ilova

FSMU texnologiyasi

- (F) - Fikringizni bayon eting.
 (S) - Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.
 (M) - Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
 (U) - Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga. qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

SAVOL	O'zbekiston Respublikasidagi mehmonxonalarni milliy tasniflash tizimini joriy qilish qanday islohotlar amalga oshirilishi kerak deb o'ylaysiz?
F - Fikringizni bayon eting.	
S - Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.	
M - Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.	
U - Fikringizni umumlashtiring.	

3-ilova

«Nilufar guli» chizmasi

«NILUFAR GULI» chizmasi - muammoni yechish vositasi. Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlarda chizma tuzadilar: avval asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar, so'ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko'rib chiqish uchun «kichik shoxchalarni» chiqaradilar. Shunga asosan har bir g'oyalar

rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin.

Amaliy nuqtai nazardan barcha g'oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.

Sizga katta qog'oz varag'i zarur bo'ladi. Doimo o'zingiz mushohadalaringiz natijasini bir varaq qog'ozda ko'rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.

	A Fransiya milliy tasniflash tizimi			B Yevropa tasniflash tizimi	
			A Fransiya milliy tasniflash tizimi	B Yevropa tasniflash tizimi	C
	D Germaniya tasniflash tizimi		D Germaniya tasniflash tizimi	Mehmonxonalar tasniflash tizimi bo'yicha qanday kamchilik va afzalliklarga ega?	E
			F	G	H

Mavzu yuzasidan mustaqil bajarish uchun uyga vazifalar

1. Mehmonxonalarni tasniflash tizimini tushuntiring
2. Yevropa tasniflash tizim nimadan iborat?
3. Fransiya milliy tasniflash tizimiga izog bering
4. Germaniya tasniflash tizimini tushuntirib bering.
5. Toj tizimi nima, unga qo'yiladigan talablarni tushuntiring,
6. Kalit va lenta tasniflash tizimiga izoh bering
7. Mehmonxonalarning balli tizimini tushuntiring

Mavzu bo'yicha tayyorlangan test savollari

1. Dunyoda qanday tasniflash tizimlari keng tarqalgan?
 - A. yulduzlar tizimi
 - B. harflar tizimi
 - C. tojlar tizimi
 - D. Barcha javoblar to'g'ri
2. «Mehmonxonalar klassifikatsiyasi» qachon ro'yxatga olingan?
 - A. 1998
 - B. 1999
 - C. 2000
 - D. 2001
3. Britaniya turistik agentliklar uyushmasi (BTA) tomonidan taklif qilingan tasniflash tizimi ko'ra byudjet mehmonxonalari necha yulduzli hisoblanadi?

A. 1 yulduz; - shaharning markaziy qismida joylashgan va qulayliklar minimumiga ega mehmonxonalar

B. 2 yulduz; - tarkibida restoran va bar bo'lishi shart

C. 3 yulduz; - xizmat ko'rsatish saviyasi ancha yuqori bo'lgan mehmonxonalar

D. 4 yulduz; - shinamlik darajasi juda yuqori bo'lgan, alo darajada xizmat ko'rsatiladigan mehmonxonalar

4. Britaniya turistik agentliklar uyushmasi (BTA) tomonidan taklif qilingan tasniflash tizimi ko'ra *turistik toifadagi mehmonxonalar* necha yulduzli hisoblanadi?

A. 1 yulduz; - shaharning markaziy qismida joylashgan va qulayliklar minimumiga ega mehmonxonalar

B. 2 yulduz; - tarkibida restoran va bar bo'lishi shart

C. 3 yulduz; - xizmat ko'rsatish saviyasi ancha yuqori bo'lgan mehmonxonalar

D. 4 yulduz; - shinamlik darajasi juda yuqori bo'lgan, alo darajada xizmat ko'rsatiladigan mehmonxonalar

5. Britaniya turistik agentliklar uyushmasi (BTA) tomonidan taklif qilingan tasniflash tizimi ko'ra *birinchi toifa mehmonxonalar* necha yulduzli hisoblanadi?

A. 5 yulduz; - yashash va xizmat ko'rsatish ekstra darajada bo'lgan mehmonxonalar

B. 2 yulduz; - tarkibida restoran va bar bo'lishi shart

C. 3 yulduz; - xizmat ko'rsatish saviyasi ancha yuqori bo'lgan mehmonxonalar

D. 4 yulduz; - shinamlik darajasi juda yuqori bo'lgan, alo darajada xizmat ko'rsatiladigan mehmonxonalar

6. Britaniya turistik agentliklar uyushmasi (BTA) tomonidan taklif qilingan tasniflash tizimi ko'ra *oliy toifa mehmonxonalar* necha yulduzli hisoblanadi?

A. 5 yulduz; - yashash va xizmat ko'rsatish ekstra darajada bo'lgan mehmonxonalar

B. 2 yulduz; - tarkibida restoran va bar bo'lishi shart

C. 3 yulduz; - xizmat ko'rsatish saviyasi ancha yuqori bo'lgan mehmonxonalar

D. 4 yulduz; - shinalik darajasi juda yuqori bo'lgan, alo darajada xizmat ko'rsatiladigan mehmonxonalar

7. Germaniya tasniflash tizimiga ko'ra, *turistik toifadagi mehmonxona* necha yulduzga mos keladi?

A. 4 yulduz

B. 1 yulduz

C. 2 yulduz

D. 3 yulduz

8. Germaniya tasniflash tizimiga ko'ra, *komfortli toifadagi mehmonxona* necha yulduzga mos keladi?

A. 4 yulduz

B. 1 yulduz

C. 2 yulduz

D. 3 yulduz

9. Germaniya tasniflash tizimiga ko'ra, *birinchi toifadagi mehmonxona* necha yulduzga mos keladi?

A. 1 yulduz

B. 4 yulduz

C. 2 yulduz

D. 3 yulduz

10. Germaniya tasniflash tizimiga ko'ra, *3 yulduz* qaysi toifa mehmonxonaga to'g'ri keladi?

A komfortli toifa

B birinchi toifa

C standart toifa

D turistik toifa

11. Germaniya tasniflash tizimiga ko'ra, *2 yulduz* qaysi toifa mehmonxonaga to'g'ri keladi?

A standart toifa

B lyuks

C turistik toifa

D komfortli toifa

12. Mehmonxonalarini byudjet mehmonxonalari, turistik toifa mehmonxonalari, o'rtacha toifa mehmonxonalar, birinchi toifa mehmonxonalari va oliy toifa mehmonxonalariga ajratishni qaysi tashkilot tavsiya qilgan?

- A. Britaniya turistik agentliklar uyushmasi
- B. UNWTO
- C. BMT
- D. YUNESKO

13. Amerika mehmonxonalarining rasmiy klassifikatsiyasiga ko'ra Superior Deluxe klassi yevropa klassifikatsiyasi bo'yicha necha yulduzga mos keladi?

- A. 5 yulduzli
- B. 4 yulduzli
- C. 3 yulduzli
- D. 2 yulduzli

14. Amerika mehmonxonalarining rasmiy klassifikatsiyasiga ko'ra Deluxe klassi yevropa klassifikatsiyasi bo'yicha necha yulduzga mos keladi?

- A. 4 yulduzli
- B. 5 yulduzli
- C. 3 yulduzli
- D. 2 yulduzli

15. Amerika mehmonxonalarining rasmiy klassifikatsiyasiga ko'ra Expensive klassi yevropa klassifikatsiyasi bo'yicha necha yulduzga mos keladi?

- A. 3 yulduzli
- B. 4 yulduzli
- C. 5 yulduzli
- D. 2 yulduzli

16. Amerika mehmonxonalarining rasmiy klassifikatsiyasiga ko'ra Moderate klassi yevropa klassifikatsiyasi bo'yicha necha yulduzga mos keladi?

- A. 2 yulduzli
- B. 3 yulduzli

C. 1 yulduzli

D. 4 yulduzli

17. Amerika mehmonxonalarining rasmiy klassifikatsiyasiga ko'ra Inexpensive klassi yevropa klassifikatsiyasi bo'yicha necha yulduzga mos keladi?

A. 1 yulduzli

B. 2 yulduzli

C. 3 yulduzli

D. 4 yulduzli

18. Yevropa tasniflash tizimi yoki «yulduzlar» tizimi qayerning milliy tasniflash tizimi hisoblanadi?

A Fransiya

B Germaniya

C Aqsh

D Buyuk Britaniya

19. Harflar tizimi qayerda amal qiladi?

A Gresiyada

B Fransiya

C Buyuk Britaniya

D Italiya

20. Tojlar tizimi qayerda amal qiladi?

A Buyuk Britaniya

B Gresiyada

C Italiya

D Fransiya

21. Gresiyada A toifa mehmonxonalar necha yulduzli darajaga to'g'ri keladi?

A 4

B 5

C 3

D 2

22. Mehmonxonalarni harfli tasniflashda «F» harfi nimani bildiradi?

A. nogironlar hamda harakatlanishi cheklangan shaxslarga yaratilgan qulayliklarni

B. yashash joyining shinamligini

C. mehmonxonaning jihozlanishini

D. umumiy binolar va xonalarni

23. Fransiya mehmonxonalarida qaysi klassifikatsiya tizimidan foydalaniladi?

A. yulduzlar tizimi

B. tojlar tizimi

C. harflar tizimi

D. kalitlar tizimi

24. Gresiyada qo'llaniladigan mehmonxonalar klassifikatsiyasi bu -

A. harflar tizimi

B. yulduzlar tizimi

C. tojlar tizimi

D. razryadlar tizimi

25. Buyuk Britaniya qo'llaniladigan mehmonxonalar klassifikatsiyasi bu -

A. tojlar tizimi

B. razryadlar tizimi

C. harflar tizimi

D. yulduzlar tizimi

26. Avstriya, Avstraliya, Vengriya, Misr, Xitoy, Rossiya kabi davlatlarda qo'llaniladigan mehmonxonalar klassifikatsiyasi bu -

A. yulduzlar tizimi

B. tojlar tizimi

C. harflar tizimi

D. razryadlar tizimi

27. Mehmonxonalarni qanday tasniflash tizimi mavjud emas?

A. oylar

B. kalitlar

C. tojlar

D. yulduzlar

AMALIY MASHG'ULOTNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

4-mavzu

MEHMONXONALAR DIZAYNI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti- 2 soat

Talabalar soni: 20 –30 gacha

Mashg'ulot shakli

Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot

Amaliy mashg'ulot rejasi

1. Mehmonxonalar dizayni, interer va eksterer tushunchalarining mohiyati va ahamiyati
2. Mehmonxona dizaynini shakllantirishda xalqaro talablar
3. Mehmonxona intererini stilistik yo'nalishlari
4. Mehmonxona intererini shakllantirishning tarixiy, zamonaviy va etnik stillari
5. O'zbekiston mehmonxonalari dizayni

Mashg'ulotining maqsadi: mehmonxonalar dizayni va unga qo'yiladigan talablar haqida tushuncha hosil qilish.

Pedagogik vazifalar:

- mehmonxonalar dizayni, interer va eksterer tushunchalarining mohiyati va ahamiyatini tushuntirish.
- mehmonxona dizaynini shakllantirishda xalqaro talablarini aytish.
- mehmonxona intererini

O'quv faoliyati natijalari:

- mehmonxonalar dizayni, interer va eksterer tushunchalarining mohiyati va ahamiyatini tushuntiradilar.
- mehmonxona dizaynini shakllantirishda xalqaro talablarini aytadilar.
- mehmonxona intererini stilistik

stilistik yo'nalishlarini izohlash. • mehmonxona intererini shakllantirishning tarixiy, zamonaviy va etnik stillarini tushuntirish. • O'zbekiston mehmonxonalari dizayni haqida ma'lumot berish	yo'nalishlarini izohlaydilar. • mehmonxona intererini shakllantirishning tarixiy, zamonaviy va etnik stillarini tushuntiradilar. • O'zbekiston mehmonxonalari dizayni haqida ma'lumot beradilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	O'quv-topshiriq, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, Blis-so'rov, Nima uchun? usullari.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Amaliy mashg'ulotning 1-2 savollarini tahlil qiladi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi (1-ilova).	Tinglaydilar.
	1.2. Ta'lim jarayoni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Tinglaydilar.
	2.1. Talabalarga vazifa qilib berilgan	

II. Asosiy bosqich <i>(60 daqiqa)</i>	« Mehmonxonalarni tasniflash jarayonida asosiy talablar qo'yiladi?» degan savolga to'plangan ma'lumotlarni so'raydi.	Talabalar o'z vazifalarini himoya qiladilar.
	2.2. Talabalarining fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi.	Guruhlariga bo'linadilar.
	2.3. Talabalar bilimni mustahkamlash maqsadida «Blis-so'rov» o'tkazadi, savollarga javob berishlarini aytadi va baholaydi (2-ilova).	Savollar va topshiriqlarni oladilar.
	2.4. «Nima uchun?» usulini qo'llagan holda talabalarga mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqni tarqatadi (3-ilova).	Tinglaydilar.
	2.5. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga qaratadi.	Vatman qog'ozga vazifalarni bajaradilar.
	2.6. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishida yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi va baholaydi.	Fikrlarini erkin bildiradilar. Taqdimot o'tkazadilar.
III. Yakuniy bosqich <i>(10 daqiqa)</i>	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi	Eshitadi. Aniqlaydi.
	3.2. Talabalarga mustaqil ishlashlari uchun yangi qurilgan mehmonxonalarni tahlil qilib, interer va eksterida qaysi stillardan foydalanilganini topishlarini vazifa qilib beradi.	Vazifani yozib oladilar.

O'quv - vizual materiallar:

1-ilova

Mavzu rejasi:

1. Mehmonxonalar dizayni, interer va eksterer tushunchalarining mohiyati va ahamiyati.
2. Mehmonxona dizaynini shakllantirishda xalqaro talablar.
3. Mehmonxona intererini stilistik yo'nalishlari.
4. Mehmonxona intererini shakllantirishning tarixiy, zamonaviy va etnik stillari.
5. O'zbekiston mehmonxonalari dizayni

2-ilova


«Blis-so'rov» savollarga javob bering, jadval so'rov vaqtida to'ldiriladi

№	Savollar	Javoblar
1.	Mehmonxonalarda interer va ekstererining farqini ayting.	
2.	Mehmonxona intererini bezashda qanday stillardan foydalaniladi?	
3.	Mehmonxona dizaynini shakllantirishda xalqaro talablarni tushuntiring	
4.	O'zbekiston mehmonxonalari dizayni asosan qaysi stillardan foydalanib barpo etilgan?	
5.	5 Yulduzli mehmonxonalarda ekstereri qanday bo'lishi kerak?	

«Nima uchun?» usuli

“Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalar

1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.



Mavzu yuzasidan mustaqil bajarish uchun uyga vazifalar

1. Mehmonxonalar qurilishining ko'p yillik amaliyotida qanday tavsiyalar ishlab chiqilgan?
2. Mehmonxonalarni loyihalashda, qoida tariqasida, qanday o'ziga muammolar vujudga keladi?
3. Mehmonxonalarning elektron (magnitli) qulflari qanday qulayliklarga ega?
4. Mehmonxonaning jamoat qismida mehmonlarga xizmat ko'rsatish qanday talablarga javob berishi kerak?
5. Mehmonxonaning mijozlar yashaydigan qismi va unga xizmat ko'rsatish tartibini tushuntiring.
6. Mehmonxonaning hayotni ta'minlash tizimlariga nimalar kiradi?

Mavzu bo'yicha tayyorlangan test savollari

1. Mehmonxona nomerlarida qanday mebel va jihozlar bo'lishi shart deb hisoblaysiz?

A. kravot, har bir o'rin hisobidan bittadan stul yoki kreslo, har bir kravot hisobidan bittadan tumbochka yoki tungi stol, kiyim-kechak uchun joyon, umumiy yoritish moslamalari, axlat uchun savatcha

B. kiyim- kechak uchun shkaf, umumiy yoritish moslamalari, axlat uchun savatcha, kravot, kreslo

C. kravot, kreslo, stul, tungi stol, kiyim- kechak uchun shkaf va umumiy yoritish moslamalari

D. har bir kravot isobidan bittadan tumbochka yoki tungi stol

2. «Dizayn» atamasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang

A. atrof-muhitning estetik va funktsional sifatlarini shakllantirishga qaratilgan dizayn faoliyatining turli turlarini bildiruvchi atama

B. bu interyerni tashkil etuvchi faoliyat

C. madaniy ob'ektlarni loyihalash

D. predmet estetikasini yaratish

3. "Interyer" so'zining ma'nosini aniqlang

A. xonaning ichki maydoni, uni tartibga solish va bezash

B. interyerning vazifalari

C. makonni tashkil etish

D. binolarning munosabati

4. Mehmonxona interyerining funktsional maydonlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va dam olish joylari, xonalar, ma'muriyat, umumiy ovqatlanish korxonalari, texnik xonalar joylashgan qabulxona

B. xonalar va restoran

C. qabulxona, restoran, garaj

D. xonalar, restoran, bar, ma'muriyat

5. Mehmonxonalarni rejalashtirish tuzilmasining asosi nimalardan tarkib topgan?

A. markaziy lift bloki bo'lgan yo'lak yoki lift lobbilari atrofida xonalar guruhi bo'lgan minora xonasi

B. muhandislik jihozlarining yuqori darajasi

C. xonalarda konditsioner

D. restoranlarning xizmat ko'rsatish tarmog'i

6. Funktsiyalar bo'yicha mehmonxonalar o'rtasidagi farqlarni toping

A. turli faoliyat turlari uchun

B. talabalar uchun

C. baliqchilar uchun

D. nomenklatura xodimlari uchun

7. Mehmonxona binolarining asosiy ichki guruhlari qanday farqlanadi?

A. funksiyasi bo'yicha

B. hajmi bo'yicha

C. rangi bo'yicha

D. iqlimiy xususiyatlariga ko'ra

8. Mehmonxonaning asosiy tarkibiy va tipologik elementi qaysilardan iborat?

A. tirik hujayra

B. kir yuvish

C. iqtisodiy blok

D. qishki bog'

9. Mehmonxona nomer jihozlari quyidagilardan qaysilarni o'z ichiga oladi?

A. standart mebel to'plami

B. to'shak

C. karavot yonidagi stol

D. shkaf

10. Mehmonxona turlarining xilma-xilligi quyidagilardan qaysi biriga bog'liq?

A. turli ijtimoiy toifalarga yo'naltirilganlik

B. qulaylik

C. funksional zonalar majmui

D. iqlim zonolari

11. Ixtisoslashgan mehmonxonalar oddiy mehmonxonalardan qanday farq qiladi?

A. funksiyalar to'plami

B. binolarning balandligi

C. avtoturargohlarning mavjudligi

D. interyerlarning kattaligi

12. Britaniya mehmonxonalarida madaniy dizayn xususiyatlari nimalarda ifodalanadi?

A. murakkablik

B. ichki qismning jiddiyligi

C. qulaylik

D. xilma-xillik

13. Qadimgi dunyoda boylar uchun mehmonxona nomerlari qanday ranglarda bo'yalgan?

- A. yorqin ranglar
- B. oq ranglarda
- C. quyuk ranglarda
- D. sariq

14. Qadimgi dunyo mehmonxonalarining interyerlarida jihozlar quyidagilardan qaysi birida yasalgan?

- A. tosh
- B. daraxt
- C. metall
- D. loy

15. Qadimgi Misr va Yunoniston mehmonxonalarining xususiyatlari nimalardan iborat?

- A. hayvonlar uchun hovlining mavjudligi
- B. kam qavatli qurilish
- C. ichki qismdagi ustunlar
- D. uy yaqinidagi yordamchi binolar

16. Gotika davrida interyer uchun asosiy qurilish materiali nima bo'lgan?

- A. marmar
- B. g'isht
- C. daraxt
- D. plitkalar

17. Uyg'onish davrida mehmonxonalar arxitekturasida o'rta asrlarga nisbatan qanday o'zgarishlarga uchragan?

- A. katta derazali binolar yuqoriga qarab o'sadi
D. davolash sog'lomlashtirish, tabiiy rekreatsion, ma'rifiy, madaniy rivojlantiruvchi, o'yinkulgi va dam olish ko'rinishidagi

27. Animatsion tadbirning faol ishtirokchilari kimlar?

A. aktyorlar, madaniyat sohasi xodimlari, mutaxassis animatorlar, texnik soha mutaxassislari

B. uristlar, ekskursantlar va tomoshabinlar

C. nimatorlar, turistlar, tomoshabinlar

D. uristlar, ekskursantlar, qiziquvchan tomoshabinlar

28. Animatsion tadbirning passiv ishtirokchilari kimlar?

A. turistlar, ekskursantlar va tomoshabinlar

B. aktyorlar, madaniyat sohasi xodimlari, mutaxassis animatorlar

C. animatorlar, turistlar, tomoshabinlar

D. turistlar, ekskursantlar, qiziquvchan tomoshabinlar

29. Animatsiyada g'oyalar nima?

A. yangi animatsiya dasturlarini yaratish bo'yicha mutaxassis animatorlar, rejissyorlar, yozuvchi va boshqalarning g'oya va fikrlari

B. g'oyalarning maqsadi, o'ziga xosligi, muhimligi, originalligi, dolzarbligiga qarab yangi g'oyalarni ajratish

C. animatsiya dasturini yangi o'yin elementlari, musiqiy va adabiy kompozitsiyalar, teatr, liboslar bilan bezash va to'ldirish

D. yangi dastur ko'ngilochar xizmatlar bozoriga joriy etish

30. Animatsion tur nima?

A. individual va guruhlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun tashkil etiladigan, tarkibiga animatsiya xizmatlari kiritilgan turistik safardir

B. davanish, sog'lomlashtirish maqsadida tashkil etiladigan turistik safardir

C. ilmiy - ma'rifiy maqsadlarda tashkil etiladigan turistik safardir

D. individual va guruhlarning sport maqsadida tashkil etiladigan, tarkibiga sport musobaqalari kiritilgan turistik safardir

31. Mehmonxonada animatorning muloqot ko'nikmalari bu -

A. muloqot uchun vosita tanlash, nutq ohangi va mayinligi, masofa, javob berishdagi holat, muloqot kengligini ta'minlash

B. muloqot uchun vosita tanlash, suhbatdoshni nima bilandir qiziqtirish, muloqot kengligini ta'minlash

C. muloqot kengligini ta'minlash, suhbat mavzusini o'zgartirish, javob berishdagi holat

D. javob berishdagi holat, muloqot kengligini ta'minlash, suhbat mavzusini o'zgartirish

32. Animatorning shaxsiy hislatlari va fazilatlarini qanday bo'lishi lozim?

A. kirishimli, odamlar bilan muloqot qilishda iste'dodli, tug'ma lider, bajaruv xohishi, sabrli, mas'uliyatli

B. bilimdon, diplomatik, xushmuomala, tartib intizomli, qattiqqo'l

C. rahmdil, qattiqqo'l, odamlar bilan muloqot qilishda iste'dodli, tug'ma lider, bajaruv xohishi, sabrli, mas'uliyatli

D. odamlar bilan muloqot qilishda iste'dodli, bilimdon, diplomatik, xushmuomala, tug'ma lider, sabrsiz, shoshqaloq

33. Odatda animator sifatida xodimlarni ishga qabul qilishda necha yosh eng maqul bo'lib hisoblanadi?

B. 30 yoshgacha

C. 20 yoshgacha

D. 40 yoshgacha

E. 25 yoshgacha

34. Animatsiya tizimida animatsiya bo'yicha menejer kimga bo'ysunadi?

A. bosh menejerga

B. mutaxassis menejerga

C. direktorga

D. kengash raisiga

35. Mehmondo'stlik sanoatida turistlarning dam olishlari, animatsion faoliyati bir qator tizimlar asosida amalga oshiriladi.
Bular

A. moddiy va texnik baza, tabiiy kompleks, madaniy va tarixiy majmualar, dam olish infratuzilmasi va xodimlar

B. moddiy va texnik baza, madaniy va tarixiy majmualar, dam olish infratuzilmasi va xodimlar, turistlar

C. mehmonxona, tabiiy kompleks, madaniy va tarixiy majmualar, dam olish industriyasi va xodimlar

D. mehmonxona tizimi, texnologik omillar, tashkilotchilar, hamkorlar, dam olish infratuzilmasi va xodimlar

36. Mehmonxonada animatsion menejment tushunchasiga to'g'ri ta'rif bering

A. turizm bozoridagi turistik kompleks faoliyatida strategik maqsadga erishish uchun mo'ljallangan murakkab animatsiya xizmatlarini tashkil etish hamda jarayonni nazorat qilish tizimidir

B. mehmonxonada animatorlik xizmatlarini ko'rsatish

C. turizm korxonalarida animatsion, ko'ngilochar va sport tadbirlarini, shuningdek, musiqa kechalari va turli ko'rgazmalarda faol ishtirok etish

D. turizm korxonalarida animatsion, ko'ngilochar va sport tadbirlarini, shuningdek musiqa kechalari va turli ko'rgazmalarda turistlarning faol ishtirok etishlarini ta'minlash

AMALIY MASHG'ULOTNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

12-mavzu

MEHMONXONA XODIMLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti - 2 soat

Talabalar soni: 20 – 30 gacha

Mashg'ulot shakli

Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot

Amaliy mashg'ulot rejasi

1. Mehmonxonalarda xodimlarni boshqarish.
2. Ishchi kuchini mehnatga rag'batlantirish.
3. Menejerga qo'yilgan talablar.
4. Mehnat jamoalarini shakllantirish.
5. Xodimlarni tanlash. Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish.
6. Ish beruvchining huquq va majburiyatlari.
7. Mehnat shartnomasi va uni bekor qilish shartlari.
8. Mehnatni muhofaza qilish.
9. Mehmonxonada xizmat ko'rsatuvchi xodimlar faoliyatini baholash usullari.
10. Xalqaro mehmonxona biznesida xodimlarni boshqarish.

Mashg'ulotning maqsadi: mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta'minlash va o'zlashtirish.

Pedagogik vazifalar:

- mehmonxonalarda xodimlarni boshqarishni tushuntirish
- ishchi kuchini mehnatga

O'quv faoliyati natijalari:

- mehmonxonalarda xodimlarni boshqarishni tushuntiradilar
- ishchi kuchini mehnatga

rag'batlantirishni aytish. • menejerga qo'yilgan talablarni tavsiflash. • mehnat jamoalarini shakllantirishni tushuntirish. • xodimlarni tanlash, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish haqida ma'lumot berish. • ish beruvchining huquq va majburiyatlarini tushuntirish. • mehnat shartnomasi va uni bekor qilish shartlarini aytish. • mehnatni muhofaza qilish haqida tushuncha berish. • mehmonxonada xizmat ko'rsatuvchi xodimlar faoliyatini baholash usullariga tavsif berish. • xalqaro mehmonxona biznesida xodimlarni boshqarish yo'llarini tushuntirish	rag'batlantirishni aytadilar. • menejerga qo'yilgan talablarni tavsiflaydilar • mehnat jamoalarini shakllantirishni tushuntiradilar. • xodimlarni tanlash, xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish haqida ma'lumot beradilar. • ish beruvchining huquq va majburiyatlarini tushuntiradilar. • mehnat shartnomasi va uni bekor qilish shartlarini aytadilar. • mehnatni muhofaza qilish haqida tushuncha beradilar. • mehmonxonada xizmat ko'rsatuvchi xodimlar faoliyatini baholash usullariga tavsif beradilar. • xalqaro mehmonxona biznesida xodimlarni boshqarish yo'llarini tushuntiradilar
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Bahs-munozara, guruhlarda ishlash, Baliq skeleti va Nima uchun? usullari.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya

Monitoring va baholash		Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.
1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi		
Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
I. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Amaliy mashg'ulotning 1-3 savollarni tahlil qiladi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi (1-ilova). 1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orqali amalga oshirishini e'lon qiladi.	Tinglaydilar. Talabalar guruhlariga bo'linadilar.
II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Talabalarga uyga vazifa qilib berilgan mehmonxonada turistlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish yo'llari haqidagi ma'lumotlarni so'raydi va baholaydi. 2.2. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi. 2.3. «Baliq skeleti» usulidan foydalangan holda «Mehmonxonalarda xodimlarni tanlashda qanday talablar qo'yiladi?» degan savol bilan murajaat qiladi (2-ilova). 2.4. Guruhlarga topshiriqlarni tushuntiradi. Berilgan topshiriqni avval to'g'ri javob ustuniga keyin guruh javobi ustuniga belgilashlarini aytadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga qaratadi. 2.5. «Nilufar guli» usulidan foydalangan holda «Mehmonxona xodimlari faoliyatini tashkil etishda nimalarga ahamiyat berish kerak deb xisoblaysiz?» degan savol bilan murajaat qiladi (3-ilova).	O'z fikrlarini erkin bildiradilar. Guruhlarga bo'linadilar. Faol qatnashadilar Jamoabo'lib ishlaydilar. Baxs-munozara yuritadilar. Talabalar vazifalarni bajaradilar.

	2.6. Har bir guruh berilgan topshiriqlarni yechadi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. Yechimini tekshirib baholaydi.	Baxs-munozara yuritadilar.
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonlari orqali rag'batlantiradi. 3.2. Talabalar mustaqil ishlashlari uchun xalqaro mehmonxona biznesida xodimlarni boshqarish tajribasi haqida ma'lumot to'plab kelishlarini aytadi.	Eshitadi. Aniqlaydi. Vazifani yozib o'qiydilar.

O'quv – visual materiallar:

1-ilova


Mavzu bo'yicha pedagogik texnologiyalarga asoslangan tarqatma materiallar

Mavzu rejasi:

1. Mehmonxonalarda xodimlarni boshqarish.
2. Ishchi kuchini mehnatga rag'batlantirish.
3. Menejerga qo'yilgan talablar.
4. Mehnat jamoalarini shakllantirish.
5. Xodimlarni tanlash. Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish.
6. Ish beruvchining huquq va majburiyatlari.
7. Mehnat shartnomasi va uni bekor qilish shartlari.
8. Mehnatni muhofaza qilish.
9. Mehmonxonada xizmat ko'rsatuvchi xodimlar faoliyatini baholash usullari.
10. Xalqaro mehmonxona biznesida xodimlarni boshqarish.

«Baliq skeleti» organayzerini to'ldiring.

Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa muammolarni tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



«Nilufar guli» chizmasi

«NILUFAR GULI» chizmasi-muammoni yechish vositasi. Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlarda chizma tuzadilar: avval asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar, so'ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko'rib chiqish uchun «kichik shoxchalarni» chiqaradilar. Shunga asosan har bir g'oyalar rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin.

Amaliy nuqtai nazardan barcha g'oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi.

Sizga katta qog'oz varag'i zarur bo'ladi. Doimo o'zingiz mushohadalaringiz natijasini bir varaq qog'ozda ko'rish foydali hisoblanadi. Qarama-qarshi holda esa sizga bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga va bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.

	A			B	
	Xodimlarni boshqarish			Xodimlarni tanlash	
		A		B	C
		Xodimlarni boshqarish		Xodimlarni tanlash	
	D		D	Mehmonxona xodimlari faoliyatini tashkil etishda nimalarga ahamiyat berish kerak deb xisoblaysiz?	E
	Ishchi kuchini mehnatga rag'batlantirish		Ishchi kuchini mehnatga rag'batlantirish		
			F	G	H

Mavzu yuzasidan mustaqil bajarish uchun uyga vazifalar



1. Kadrlarni tanlashda xatoga yo'l qo'ymaslik uchun qanday axborot manbalaridan foydalanish lozim?
2. Tashkilot ichida xodimlarni tanlashning ijobiy tomonlarni tushuntiring.
3. Tashkilot ichida xodimlarni tanlashning kamchiliklarini tushuntiring.
4. Tashkilotdan tashqarida xodimlarni tanlashning ijobiy tomonlarini tushuntiring.
5. Tashkilotdan tashqarida xodimlarni tanlashning kamchiliklarini tushuntiring.

Mavzu bo'yicha tayyorlangan test savollari

1. Kadrlar tanlashda nimalar axborot manbai bo'lishi mumkin?

A. ishga olish to'g'risida ariza, mexnat daftarchasi, shaxsiy so'rovnomalar, sinov

B. fotosurat, tavsiyalar, etuklik attestati, tibbiy ko'rik, psixologik testlar

C. tarjimai xol, nomzod bilan suxbat

D. barcha javoblar to'g'ri

2. Tashkilot ichida xodimlarni tanlashning ijobiy tomonlari:

A. xizmat pillapoyasi bo'ylab ko'tarilish imkoniyati, jamoadagi uyushqoqlik, ishlab chiqarishdagi yaxshi muxit, ishdagi rag'batlantirishlar darajasining saqlanishi

B. xodimlarni tanlashda kam harajat qilinishi, xodimning ish jarayonini bilishi, bo'sh lavozim tez egallanishi, yoshlar uchun bo'sh o'rinlar ochilishi

C. a va b javoblar

D. Uzoq vaqt ishlagan xodimga «yo'q» deya olmaslik

3. Tashkilot ichida xodimlarni tanlashning kamchiliklari:

A. tanlash imkoniyatining kamayishi, malaka oshirishga katta harajatlar qilinishi

B. a va v javoblar

C. xodimga o'z korxonasidagi kamchiliklar ko'rinmaydi, hamkasabalarning ishdan ixlosi qaytishi, uzoq vaqt ishlagan xodimga «yo'q» deya olmaslik

D. tanlash imkoniyatining kengligi, ishdagi rag'batlantirishlar darajasining saqlanishi

4. Tashkilotdan tashqarida xodimlarni tanlashning ijobiy tomonlari bu

A. tanlash imkoniyatining kengligi, korxonaga «yangi g'oyalar»ning kirishi, ishga qabul qilish kadrlarga bo'lgan talabni bevosita qondiradi, chetdan olingan xodim boshqa korxonalar bilimlarini olib keladi

B. tanlash imkoniyatining kamayishi, malaka oshirishga katta harajatlarni qilinishi

C. xizmat pillapoyasi bo'ylab ko'tarilish imkoniyati, jamoadagi uyushqoqlik, ishlab chiqarishdagi yaxshi muxit, ishdagi rag'batlantirishlar darajasining saqlanishi

D. barcha javoblar to'g'ri

5. Tashkilotdan tashqarida xodimlarni tanlashning kamchiliklari bu

A. tanlash imkoniyatining kengligi, korxonaga «yangi g'oyalar»ning kirishi, ishga qabul qilish kadrlarga bo'lgan talabni bevosita qondiradi, chetdan olingan xodim boshqa korxonalar bilimlarini olib keladi

B. tanlash imkoniyatining kamayishi, malaka oshirishga katta harajatlarni qilinishi

C. tanlashda katta harajat qilinadi, yangi qabul qilingan xodimlar ulushining ko'pligi kadrlar qo'nimsizligiga imkoniyat yaratadi, jamoadagi muxitga salbiy tasir ko'rsatishi mumkin, yangi xodimning bilim va ko'nikmalari kamligi tufayli sinov muddatiga ko'p vaqt sarflanadi, ish jarayonini bilmaydi

D. barcha javoblar to'g'ri

6. Xodimlarni baholashning prognostik metodi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. So'rovnomalar, ma'lumotlaridan, yozma yoki og'zaki tarifnomalardan, raxbar va hamkasabalarning fikr - muloxazalari va tavsiyanomalaridan, shaxsiy suxbatlar va psixologik testlardan foydalaniladi

B. xodimning amaliy ish natijalariga asosan uning xizmat vazifalarini bajarishga yaroqliligi tekshiriladi, buning uchun xodimni muayyan lavozimda sinash usullari va texnikasidan foydalaniladi

C. nomzodga muayyan vazifani xal qilish topshiriladi

D. nomzodga sinov muddati belgilanadi

7. Xodimlarni baholashning amaliy metodi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. so'rovnoma malumotlaridan, yozma yoki og'zaki tarifnomalardan, raxbar va hamkasabalarning fikr - muloxazalari va tavsiyanomalaridan, shaxsiy suxbatlar va psixologik testlardan foydalaniladi

B. xodimning amaliy ish natijalariga asosan uning xizmat vazifalarini bajarishga yaroqliligi tekshiriladi. Buning uchun xodimni muayyan lavozimda sinash usullari va texnikasidan foydalaniladi

C. nomzodga muayyan vazifani xal qilish topshiriladi

D. nomzodga sinov muddati belgilanadi

8. Xodimlarni baholashning imitasion metodi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. so'rovnoma malumotlaridan, yozma yoki og'zaki tarifnomalardan, raxbar va hamkasabalarning fikr - muloxazalari va tavsiyanomalaridan, shaxsiy suxbatlar va psixologik testlardan foydalaniladi

B. xodimning amaliy ish natijalariga asosan uning xizmat vazifalarini bajarishga yaroqliligi tekshiriladi. Buning uchun xodimni muayyan lavozimda sinash usullari va texnikasidan foydalaniladi

C. nomzodga muayyan vazifani xal qilish topshiriladi

D. nomzodga sinov muddati belgilanadi

9. Mehmonxonada boshqaruv uslublari tushunchasiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang

A. boshqaruv uslubi – muayyan maqsadlarga erishish maqsadida boshqariluvchi ob'ektga ta'sir ko'rsatish usullari va vositalari majmuidir

B. boshqaruv uslubi – muayyan vazifani hal qilayotganida turli uslublar uning ixtiyoriga maqsadlar qo'yish usullari va vositalar majmuidir

C. boshqaruv uslubi – mehnat jamoalariga, shu jumladan, alohida xodimlarga nisbatan qo'llaniladigan usuldur

D. boshqaruv uslubi – boshqariluvchi ob'ektga ta'sir ko'rsatish usullaridir

10. Mehmonxona xodimlarini boshqarish departamenti vazifalariga qanday masalalarni hal qilish kiradi?

A. xodimlarni tanlash va yollash, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, mehnat munosabatlarini tartibga solish, kadrlarni rejalashtirish, mehnat haqi va mehnat sharoitlari

B. xodimlar mehnatini tashkil qilish va xodimlarning majburiyatlari, kadrlar bilan ishlash bo'yicha har bir mutaxassisning maqomi, mehnat haqi va mehnat sharoitlari

C. xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, mehnat munosabatlarini tartibga solish; kadrlarni rejalashtirish

D. xodimlarni tanlash va yollash, xodimlar mehnatni tashkil qilish va xodimlarning majburiyatlari; kadrlarni rejalashtirish

AMALIY MASHG'ULOTNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

13-mavzu MEHMONXONA XODIMLARI VA MIJOZLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR ETIKASI

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti - 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 20 –30 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulot rejası</i>	1. Mehmonxonalarda xodimlar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar. 2. Mehmonxona xodimlarining mijozlarga murojaat qilish qoidaları. 3. Mijozlardan tushgan shikoyat va e'tirozlar bilan ishlash va ularni hal etish.

Mashg'ulotining maqsadi: mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirishni ta'minlash.

Pedagogik vazifalar:

- mehmonxonalarda xodimlar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirish.
- mehmonxona xodimlarining mijozlarga murojaat qilish qoidalarini o'rgatish.
- mijozlardan tushgan shikoyat va e'tirozlar bilan ishlash va ularni hal etishni aytilish.

O'quv faoliyati natijalari:

- mehmonxonalarda xodimlar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni tushuntiradilar.
- mehmonxona xodimlarining mijozlarga murojaat qilish qoidalarini o'rgatadilar.
- mijozlardan tushgan shikoyat va e'tirozlar bilan ishlash va ularni hal etishni aytadilar.

Ta'lim berish usullari

Amaliy ishlash usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, Nima uchun? va Qanday? usullari

<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya.
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob.

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Mavzuga kirish <i>(10 daqiqa)</i>	1.1. O'quv mashg'uloti 1-4 savollarni tahlil qiladi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi <i>(1-ilova)</i> .	Tinglaydilar.
	1.2. Ta'lim jarayoni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Talabalar guruhlariga bo'linadilar.
	2.1. Uyga vazifa qilib berilgan xalqaro mehmonxona biznesida xodimlarni boshqarish tajribasi haqidagi ma'lumotlarni so'raydi va baholaydi.	O'z fikrlarini erkin bildiradilar.
	2.2. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi.	Guruhlariga bo'linadilar.
	2.3. Talabalarga «Nima uchun?» usulini qo'llagan holda «Nima uchun mehmonxonalarda xodimlar va mijozlar o'rtasida ziddiyatli munosabatlar vujudga keladi?» degan savol bilan murojaat qiladi <i>(2-ilova)</i> .	Topshiriqlar ustida ishlaydilar.
	2.4. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog'ozlarga tushirib,	Taqdimot o'tkazadilar,

II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtirib, yagona xulosa chiqaradi va baholaydi. 2.5. Talabalarni yana guruhlariga bo'lib, ularga «Qanday?» diagrammasini qo'llagan holda «Mehmonxona xodimlari mijozlarga murojaat qilishda qanday qoidalarini bilishlari kerak?» degan savol bilan murojaat qiladi (3-ilova). 2.6. Guruhlarga qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. 2.7. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtirib, yagona xulosa chiqaradi va baholaydi.	baholaydilar, xulosa chiqaradilar. Topshiriqlar ustida ishlaydilar. Talabalar vazifani bajaradilar. Taqdimot o'tkazadilar, xulosa chiqaradilar.
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi. 3.2. Talabalarga mustaqil ishlashlari uchun mehmonxona xodimlari va mijozlari o'rtasidagi munosabatlar etikasi haqida ma'lumot to'plab kelisharini aytadi.	Eshitadi. Aniqlaydi. Vazifani yozib oladilar.

O'quv – visual materiallar:

1-ilova

Mavzu rejasi:

1. Mehmonxonalarda xodimlar va mijozlar o'rtasidagi munosabatlar.
2. Mehmonxona xodimlarining mijozlarga murojaat qilish qoidalari.
3. Mijozlardan tushgan shikoyat va e'tirozlar bilan ishlash va ularni hal etish.


**Mavzu bo'yicha pedagogik texnologiyalarga asoslangan
tarqatma materiallar**

2-ilova

«Nima uchun?» usuli


“Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.



3-ilova

«Qanday?» organayzerini to'ldiring



Mavzu yuzasidan mustaqil bajarish uchun uyga vazifalar



1. Shaxs va uning xulq-atvorini tavsiflab beradigan asosiy omillarga nimalar kiradi?
2. Temperament tushunchasiga ta'rif bering
3. Mehmonxona xodimlarining mehnat munosabatlari etikasini tushuntirib bering.
4. Nutq madaniyati - deganda nimani tushunasiz?
5. Xodimning yozma nutq madaniyati qanday hujjatlar bilan ishlashda namoyon bo'ladi?

Mavzu bo'yicha tayyorlangan test savollari



1. «Etika» so'zining ma'nosi bu -
 - A. ijtimoiy hayot jarayonida amalga oshiriladigan xulq - atvrlarning universal va xususiy ma'naviy talablar tizimi
 - B. atrof muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan amaliy tadbirlar majmuasi
 - C. professionla faoliyat jarayoni
 - D. psixologik faoliyat jarayoni
2. Muomala madaniyatining umumiy qoidalari qaysilar?
 - A. odob va ehtiyot bilan muomala qilish , qo'pol muomalali kishilarning muomalasiga yaxshi javob qaytarish , o'zidan kichiklarga hurmatda bo'lish
 - B. tashqi ko'rinishga qarab muomala qilish , ehtiyot bilan muomala qilish

C. qo'pol kishilarga yaxshi javob qaytarish ,tashqi ko'rinishga qarab javob qaytarish

D. tashqi ko'rinishga qarab muomala qilish,qo'pol kishilarga yaxshi javob qaytarish

3. Shaxslararo munosabatlarning umumiy qoidalari qaysilar?

A. insonning inson tomonidan boshqacha aks ettirilishi va o'zi tomonidan boshqacha baholanishi

B. boshqa kishilarga nisbatan odatda ularning jismoniy xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yish

C. tashqi ko'rinishga qarab muomala qilish

D. barchasi to'g'ri

4. Psixologik o'zini himoyalash qonuniyatini belgilang

A. b va c javoblar to'g'ri

B. boshqa kishilarga nisbatan odatda ularning tashqi jismoniy xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yish

C. ijtimoiy xulq atvorning yetakchi motivi bo'lib ,inson o'zining shaxsiy statusi, shaxsiy qadr – qimmatini saqlash hisoblanadi

D. tog'ri javob yo'q

5. Salomlashish etikasini ko'rsating

A. kayfiyat yoki boshqa kishiga nisbatan yomon munosabat aks etmasligi

B. ehtiyot bilan muomala qilish

C. ijtimoiy xulq-atvorningnamunasi

D. barchasi to'g'ri

6. Ishbilarmonlik suhbatini yuritish qaysi payt ishlab chiqiladi?

A. professional faoliyat jarayonida va kundalik turmush sharoitida

B. uy sharoitida

C. muomala qilish jarayonida

D. b va c javoblar to'g'ri

7. Telefonda suhbatlashish etikasi bu -

A. ishbilarmonlik suhbatlarini o'tkazishning maxsus holati

- B. ehtiyot bilan muomala qilish jarayoni
- C. b javob to'g'ri
- D. to'g'ri javob yoq
- 8. Telefonda suhbatlashish etikasi nechta turga bo'linadi?
 - A. 2
 - B. 3
 - C. 4
 - D. 5
- 9. Tanqid qoidolari nima bilan bog'liq?
 - A. tanqidiy baholash vazifasiga
 - B. telefonda gaplashish va suhbat qurish
 - C. kiyinish va o'zaro salomlashish
 - D. to'g'ri javob yoq
- 10. Mehmonxona xodimlari mijozlar bilan aloqa qilishda qanday turlarga qarab ajratiladi?
 - A. kontaktli va kontaktsiz
 - B. asosiy va yordamchi
 - C. yuqori va quyi
 - D. lavozimi yuqori va lovozimi past

AMALIY MASHG'ULOTNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI	
14-mavzu	MEHMONXONALARDA XODIMLAR KASBIY ETIKASI
1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
<i>Mashg'ulot vaqti- 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 20 -30 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Mehmonxona xodimlarining kasbiy etikasi. 2. Xodim va rahbar o'rtasidagi muloqot etikasi. 3. Xodim va xodim o'rtasidagi muloqot etikasi
<i>Mashg'ulotining maqsadi:</i> ekologiya va turizm haqida tushuncha hosil qilish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • mehmonxona xodimlarining kasbiy etikasini tushutirish. • xodim va rahbar o'rtasidagi muloqot etikasini tavsiflash. • xodim va xodim o'rtasidagi muloqot etikasini aytish	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • mehmonxona xodimlarining kasbiy etikasini tushutiradilar. • xodim va rahbar o'rtasidagi muloqot etikasini tavsiflaydilar. • xodim va xodim o'rtasidagi muloqot etikasini aytadilar
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Topshiriqlar, amaliy ishlash uchun, bahs-munozara, Venna diagrammasi va FSMU usullari.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan

	ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash.

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Amaliy mashg'ulotda 1-3 savollar chuqurroq tahlil qilinadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi (1- ilova). 1.2. Ta'lim jarayoni interfaol usullar orkali amalga oshirishini e'lon qiladi. Talabalarni doira yoki turtburchak shaklida stollar atrofida joylashadilar.	 Tinglaydilar. Guruhlarga bo'linadilar.
II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Uyga vazifa qilib berilgan mehmonxona xodimlari va mijozlari o'rtasidagi munosabatlar etikasi haqidagi taqdimotini so'raydi va baholaydi. 2.2. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi. 2.3. Guruhlarga «Venna» diagrammasi usulidan foydalangan holda «Xodim va rahbarlarning muloqot etikasini tavsiflab, umumiy mohiyatini yozing» degan savol bilan murojaat qiladi (2-ilova). 2.4. Guruhlarga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan	Savollarga javob beradilar Jamoabo'lib ishlaydilar. Topshiriqlarni ko'rib chiqib, savollarga javob beradilar. Diagrammani har bir guruh

	foydalanishga imkon yaratadi. 2.5. Har bir guruhga topshiriqlarni vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishida yordam beradi va baholaydi. 2.6. FSMU usuli asosida talabalarga savol bilan murojaat qiladi (3-ilova). 2.7. Har bir guruh taqdimotini o'tkazishga yordam beradi. Mavzudan kelib chiqib, qo'yilgan muammo keng yoritilgan fikrlarni qayd qiladi va baholaydi. 2.8. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi, nihoyasida umumlashtirib baholaydi.	to'ldiradilar. Har bir guruh vatman qog'ozlarda vazifani bajaradilar. Faol qatnashadilar. Taqdimot o'tkazadilar, baholaydilar, xulosa chiqaradilar.
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi. 3.2. Talabalarga mustaqil ishlashlari uchun mehmonxona xodimlarining kasbiy etikasi haqida ma'lumotlarni to'plab, taqdimot tayyorlab kelishlarini aytadi.	Eshitadi. Aniqlaydi. Vazifani yozib oladilar.

O'quv – visual materiallar:



1-ilova

Mavzu rejasi:

1. Mehmonxona xodimlarining kasbiy etikasi.
2. Xodim va rahbar o'rtasidagi muloqot etikasi.
3. Xodim va xodim o'rtasidagi muloqot etikasi

Mavzu bo'yicha pedagogik texnologiyalarga asoslangan
tarqatma materiallar




2-ilova

«Venna diagrammasi»

1. Muammoli masalani tanlang va ularga tavsif bering.
2. Aylana diagrammaning har biriga berilgan tavsifnomani yozing.
3. Taqqoslang va ularni umumiy tomonlarini toping.
4. Venna diagramma aylanasi biriktirishga harakat qiling.

Aylana ichiga « xodim va rahbarlarning muloqot etikasini
tavsiflab» , umumiy mohiyatini yozing.



3-ilova

FSMU texnologiyasi

(F) - Fikringizni bayon eting.

(S) - Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

(M) - Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

(U) - Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

SAVOL	Mehmonxonalarda xodimlar kasbiy etikasiga qo'yiladigan talablarga nimalar kiradi deb o'ylaysiz?
F - Fikringizni bayon eting.	
S - Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.	

M - Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.	
U - Fikringizni umumlashtiring.	

Mavzu yuzasidan mustaqil bajarish uchun uyga vazifalar

1. Tipologiya xulqning qanday parametrlarida namoyon bo'ladi?
2. Mijozlarning qanday tiplari mavjud?
3. V.A.Kvartalnov mijozlarning qanday tiplarini ajratgan?
4. Potensial mijozlarni joylashtirish uchun aniq mehmonxona tanlash chog'ida qanday talablardan kelib chiqiladi?
5. Xizmat ko'rsatish madaniyatining asosiy shartlari nimalardan iborat?
6. Mehmonxona xodimlar uchun umumiy qoidalardan eng muhimlarining mohiyatini tushuntirib bering?

Mavzu bo'yicha tayyorlangan test savollari

1. Bajariladigan vazifasi nuqtai nazaridan mehmonxona xodimlari an'anaviy ravishda qaysi toifalarga bo'linadi?
 - A. rahbarlar, mutaxassislar, ijrochilarga
 - B. rahbarlar, ishchilar, injenerlarga
 - C. boshqaruvchilar, ijrochilar, bajaruvchilarga
 - D. direktor, maslahatchi, ishchi xodim
2. Xo'jalik xizmati direktoriga kimlar bo'ysunadi?
 - A. xodimlar, farroshlar

B. ro'yxatga olish xizmati

C. restoran direktori

D. xavfsizlik xizmati

3. Tijorat bo'limi direktoriga kimlar bo'ysunadi?

A. sotuvlar bo'yicha menejerlar, banket xizmat

B. xodimlar, farroshlar

C. konserj xizmati

D. xavfsizlik xizmati

4. Xodimlar bo'yicha menejerga kimlar bo'ysunadi?

A. kadrlar bo'limi

B. texnik bo'lim

C. bronlash tirish xizmati

D. ro'yxatga olish xizmati

5. Nomer fondi direktoriga kimlar bo'ysunadi?

A. qabul qilish xizmati, xo'jalik xizmati xodimlar va farroshlar, kirxona, kimyoviy tozalash shoxobchasi va sh.k

B. oshxona, restoranlar, barlar, banket xizmati, nomerlarda xizmat ko'rsatish bo'limi

C. kontroller, marketing va sotuvlar bo'limi menejeri

D. bosh muxandis, xavfsizlik xizmati va xodimlar bo'limi

6. Umumiy ovqatlanish direktoriga kimlar bo'ysunadi?

A. oshxona, restoranlar, barlar, banket xizmati, nomerlarda xizmat ko'rsatish bo'limi

B. qabul qilish xizmati, xo'jalik xizmati xodimlar va farroshlar, kirxona

C. bosh muxandis, xavfsizlik xizmati va xodimlar bo'limi

D. kontroller, marketing va sotuvlar bo'limi menejeri

7. Ma'muriy ishlar buyicha direktorga kimlar bo'ysunadi?

A. kontroller, marketing va sotuvlar bo'limi menejeri, bosh muxandis, xavfsizlik xizmati va xodimlar bo'limi

B. qabul qilish xizmati, xo'jalik xizmati

C. xodimlar va farroshlar, kirxona

D. oshxona, restoranlar, barlar, banket xizmati, nomerlarda xizmat ko'rsatish bo'limi

AMALIY MASHG'ULOTNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

15-mavzu

MEHMONXONALARDAGI TEXNIK JIHOZLAR VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti- 2 soat

Talabalar soni: 20 -30 gacha

Mashg'ulot shakli

Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg'ulot

Amaliy mashg'ulot rejasi

1. Mehmonxonalarda foydalaniladigan texnik jihozlar.
2. Texnik jihozlar turlari.
3. Texnik jihozlardan foydalanish.
4. Texnik jihozlarga qo'yiladigan talablar.

Mashg'ulotining maqsadi: mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlash.

Pedagogik vazifalar:

- mehmonxonalarda foydalaniladigan texnik jihozlar haqida ma'lumotlar berish
- texnik jihozlar turlarini tavsiflash.
- texnik jihozlardan foydalanishni o'rgatish.
- texnik jihozlarga qo'yiladigan talablarni aytish

O'quv faoliyati natijalari:

- mehmonxonalarda foydalaniladigan texnik jihozlar haqida ma'lumotlar beradilar
- texnik jihozlar turlarini tavsiflaydilar.
- texnik jihozlardan foydalanishni o'rganadilar.
- texnik jihozlarga qo'yiladigan talablarni aytadilar

Ta'lim berish usullari

Topshiriqlar, amaliy ishlash, kichik guruhlarda ishlash, Nima uchun? va Konseptual jadval

	usullari.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoa va guruhlarda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish.

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
I. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Amaliy mashg'ulotning 1 savolini tahlil qiladi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi (1- ilova).	Tinglaydilar.
	1.2. Ta'lim jarayoni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Tinglaydilar.
	2.1. Talabalarga uyga vazifa qilib berilgan mehmonxona xodimlarining kasbiy etikasi haqida tayyorlab kelgan taqdimotlarini so'raydi va baholaydi.	O'z fikrlarini erkin bildiradilar.
	2.2. Talabalarning fikrini umumlashtirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlariga bo'ladi.	Guruhlariga bo'linadilar.
	2.3. «Nima uchun?» usulini qo'llagan holda talabalarga «Nima uchun mehmonxonalar texnik jihozlariga talablar qo'yiladi? « deb savol beradi (2- ilova).	Talabalar vatman qog'ozga vazifalarni bajaradilar.
	2.4. Guruhlarga topshiriqlarni	Baxs-

II. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	bajarish uchun yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga qaratadi. 2.5. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishida yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi va baholaydi. 2.6. «Konseptual jadval» usulidan foydalangan holda «Mehmonxonalarda foydalaniladigan texnik jihozlarni tavsiflang» degan savol bilan murojaat qiladi (3- ilova). 2.7. Har bir guruh topshiriqlarni vatman qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishida yordam beradi, izoh beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi va baholaydi.	munozara yuritadilar. Taqdimot o'tkazadilar, baholaydilar, xulosa chiqaradilar. Talabalar vatman qog'ozga vazifalarni bajaradilar. Taqdimot o'tkazadilar, baholaydilar, xulosa chiqaradilar.
III. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezonini orqali rag'batlantiradi. 3.2. Talabalarga mustaqil ishlashlari uchun xususiy mehmonxonalarni tashkil qilish bo'yicha biznes plan tuzib kelishlarini aytadi.	Eshitadi. Aniqlaydi. Vazifani yozib oladilar.

O'quv – visual materiallar:

1-ilova

Mavzu rejasi:

1. Mehmonxonalarda foydalaniladigan texnik jihozlar.
2. Texnik jihozlar turlari.
3. Texnik jihozlardan foydalanish.
4. Texnik jihozlarga qo'yiladigan talablar.


Mavzu bo'yicha pedagogik texnologiyalarga asoslangan
tarqatma materiallar

2-ilova

«Nima uchun?» usuli

“Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chizikli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.



3-ilova

«Konseptual» jadvali

	Tavsiflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar		
	Evropa mintaqasi	Osiyo mintaqasi	Yaqin Sharq mintaqasi
Mehmonxonalarda foydalaniladigan texnik jihozlarni tavsiflang			

Mavzu yuzasidan mustaqil bajarish uchun uyga vazifalar



1. Mehmonxonalarda qanday texnik jihozlardan foydalaniladi?
2. Texnik jihozlarning qanday turlarini bilasiz?
3. Texnik jihozlardan foydalanishga nimalarga e'tibor berilishi lozim?
4. Mehmonxonalarda qanday aloqa tizimlari o'rnatilishi kerak?
5. Mehmonxonalarning texnik jihozlariga qanday xavfsizlik tizimlari kiritilishi kerak?
6. Mehmonxonalarda mijozlar qulay yashashi maqsadida nomerlarda qanday jihozlar o'rnatilishi kerak?
7. Mehmonxonalarda biznes uchrashuvlar va konferensiyalarni o'tkazish uchun qanday uskunalar o'rnatilishi kerak?
8. Mehmonlarga xizmat ko'rsatish uchun mehmonxonalarda qanday xizmatlar bo'lishi kerak?

Mavzu bo'yicha tayyorlangan test savollari



1. Mehmonxona butun maydonining kamida necha foizi nomerlar fondiga to'g'ri kelishi lozim?
- A. 90%
 - B. 20%
 - C. 50%
 - D. 10%

2. Bir o'rinli nomerning minimal maydoni kamida necha m^2 ni tashkil etishi kerak?

- A. $15 m^2$
- B. $10 m^2$
- C. $5 m^2$
- D. $25 m^2$

3. Mehmonxona restoran maydoni har o'ringa kamida necha m^2 hisobidan bo'lishi kerak?

- A. 2,5-3 m^2
- B. 1-2 m^2
- C. 5-6 m^2
- D. 1,5-1,8 m^2

4. Mehmonxonani loyihalashda qanday masalalarga e'tibor berish zarur?

- A. mehmonxonaning oqilona hajmi
- b. nomer fondining tuzilishi, yani bir o'rinli, ikki o'rinli nomerlar va lyukslar qancha bo'lishi kerakligi masalasi
- c. qavatlilik va liftlarning o'tkazish qobiliyati. xavfsizlikni taminlash muammosi
- d. barcha javoblar to'g'ri

5. Mehmonxonadagi apartament nomerlar soni nomerlar umumiy miqdorining necha foizidan oshmaydi?

- A. 10% dan
- B. 50% dan
- C. 40% dan
- D. 20% dan

G.R.Tursunova.

Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish

*amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha
o'qituv – uslubiy qo'llanma*

Qog'oz bichimi A5, 60x84¹/₁₆, Ofset qog'ozi.

“Times New Roman” garniturası.

Nashr bosma tabog'i 11,62

Buyurtma № 0031C/23. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo'limida chop etildi.

LICENSE № 025316.

REESTR № X-119112.

Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko'chasi 60-uy.

